



ISSN: 3060-4613



MAKTABGACHA
VA MAKTAB
TA'LIMI VAZIRLIGI



№11
2025

- 13.00.00 Pedagogika fanlari
- 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
- 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
- 13.00.03 Maxsus pedagogika
- 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
- 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
- 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
- 13.00.07 Ta'limda menejment
- 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
- 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
- 07.00.00 Tarix fanlari
- 19.00.00 Psixologiya fanlari
- 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
- 02.00.00 Kimyo fanlari
- 03.00.00 Biologiya fanlari
- 09.00.00 Falsafa fanlari
- 10.00.00 Filologiya fanlari
- 11.00.00 Geografiya fanlari

M AKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI

Pedagogika, psixologiya fanlariga ixtisoslashgan ilmiy jurnal



MAKTABGACHA VA MAKTAB TA'LIMI



Elektron nashr. 310 sahifa,
4-noyabr, 2025-yil.

BOSH MUHARRIR:

Karimova E'zoza Gapirjanovna – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vaziri

BOSH MUHARRIR O'RINBOSARI:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Pedagogika fanlari doktori, professor

TAHRIRIYAT KENGASHI A'ZOLARI

Ibragimov X.I. – pedagogika fanlari doktori, akademik
Shoumarov G'.B. – psixologiya fanlari doktori, akademik
Qirg'izboyev A.K. – Tarix fanlari doktori, professor
Jamoldinova O.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Sharipov Sh.S. – pedagogika fanlari doktori, professor
Shermuhhammadov B.Sh. – pedagogika fanlari doktori, professor
Ma'murov B.B. – pedagogika fanlari doktori, professor
Madraximova F.R. – pedagogika fanlari doktori, professor
Kalonov M.B. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Nabiyev D.X. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Qo'ldoshev Q. M. – iqtisodiyot fanlari doktori, professor
Ikramxanova F.I. – filologiya fanlari doktori, professor
Ismagilova F.S. – psixologiya fanlari doktori, professor (Rossiya)
Stoyuxina N.Yu. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Rossiya)
Magauova A.S. – pedagogika fanlari doktori, professor (Qozog'iston)
Rejep O'zyurek – psixologiya fanlari doktori, professor (Turkiya)
Wookyu Cha – Koreya milliy ta'lim universiteti rektori (Koreya)
Polonnikov A.A. – psixologiya fanlari nomzodi, dotsent (Belarus)
Mizayeva F. O. – Pedagogika fanlari doktori, dotsent
Baybayeva M.X. – pedagogika fanlari doktori, professor
Muxsiyeva A.T. – pedagogika fanlari doktori, professor
Aliyev B. – falsafa fanlari doktori, professor
G'afurov D. O. – falsafa fanlari doktori (Phd)
Shomurodov R.T. – iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Mirzayeva F. O. – pedagogika fanlari doktori (DSc), dotsent
Jalilova S.X. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Bafayev M.M. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Usmonova D.I. – Samarqand iqtisodiyot va servis institute dotsenti
Saifnazarov I. – falsafa fanlari doktori, professor
Nematov Sh.E. – pedagogika fanlari nomzodi (PhD)
Tillashayxova X.A. – psixologiya fanlari nomzodi (PhD), dotsent
Yuldasheva F.I. – pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Doniyorov S. M. – "Yangi O'zbekiston" va "Pravda Vostoka" gazetalar tahririyati DM bosh muharriri, O'zbekiston Respublikasida xizmat ko'rsatgan jurnalist, filologiya fanlari nomzodi (PhD)
Yuldasheva D.B. – filologiya fanlari bo'yicha falsafa (PhD) doktori, dotsent
Tangriyev A. T. – Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti kafedra professori
Ashurov R. R. – psixologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent
Panjiyev M. A. – Qashqadaryo viloyati Maktabgacha va maktab ta'limi boshqarmasi boshlig'ining birinchi o'rinbosari
Xudayberganov N. A. – Xorazm Ma'mun akademiyasi Tabiiy fanlar bo'limining katta ilmiy xodimi, biologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz: O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, O'zbekiston milliy pedagogika universiteti

EDITOR-IN-CHIEF:

Karimova E'zoza Gapirzhanovna – Minister of Perschool and School Education of the Republic of Uzbekistan

DEPUTY EDITOR-IN-CHIEF:

Ibragimova Gulsanam Ne'matovna – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

EDITORIAL BOARD MEMBERS:

Ibragimov X.I. – Doctor of Pedagogical Sciences, Academician

Shoumarov G'. B. – Doctor of Psychological Sciences, Academician

Qirg'izboyev A. K. – Doctor of Historical Sciences, Professor

Jamoldinova O.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Sharipov Sh.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Shermuhhammadov B.Sh. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Ma'murov B.B. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Madraximova F.R. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Kalonov M.B. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Nabiyev D.X. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Koldoshev K. M. – Doctor of Economic Sciences, Professor

Ikramxanova F.I. – Doctor of Philological Sciences, Professor

Ismagilova F.S. – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Russia)

Stoyuxina N.Yu. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Russia)

Magauova A.S. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor (Kazakhstan)

Rejep O'zyurek – Doctor of Psychological Sciences, Professor (Turkey)

Wookyu Cha – President of the National University of Education, Korea (South Korea)

Polonnikov A.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor (Belarus)

Mizayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Baybayeva M.X. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Muxsiyeva A.T. – Doctor of Pedagogical Sciences, Professor

Aliyev B. – Doctor of philosophy, professor

Gafurov D. O. – Doctor of Philosophy (PhD)

Shomurodov R.T. – Candidate of Economic Sciences (PhD), Associate Professor

Mirzayeva F. O. – Doctor of Pedagogical Sciences (DSc), Associate Professor

Jalilova S.X. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Bafayev M.M. – Doctor of Philosophy in Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Usmonova D.I. – Associate Professor, Samarkand Institute of Economics and Service

Saifnazarov I. – Doctor of philosophy, professor

Nematov Sh.E. – Candidate of Pedagogical Sciences (PhD)

Tillashayxova X.A. – Candidate of Psychological Sciences (PhD), Associate Professor

Yuldasheva F.I. – Doctor of Philosophy in Pedagogical Sciences (PhD), Associate Professor

Doniyorov S. M. – Editor-in-Chief of the Editorial Board of the newspapers "Yangi Uzbekiston" and "Pravda Vostoka", Honored Journalist of the Republic of Uzbekistan, Candidate of Philological Sciences (PhD)

Yuldasheva D.B. – Doctor of Philosophy (PhD) in Philological Sciences, Associate Professor

Tangriyev A.T. – is a professor of Tashkent State University of Economics

Ashurov R. R. – Doctor of Philosophy (PhD) in Psychology, Associate Professor

Panjiyev M. A. – First Deputy Head of the Department of Preschool and School Education of the Kashkadarya Region

Khudaiberganov N. A. – Senior Researcher of the Department of Natural Sciences of the Khorezm Mamun

Academy, Doctor of Philosophy (PhD) in Biological Sciences

“Maktabgacha va maktab ta’limi” jurnali O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining quyidagi qarorlariga asosan pedagogika va psixologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) hamda fan doktori (DSc) ilmiy darajasiga talabgorlarning dissertatsiyalaridagi asosiy ilmiy natijalarni chop etish uchun milliy ilmiy nashrlar ro‘yxatiga kiritilgan:

Pedagogika fanlari bo‘yicha: OAK Kengashi tavsiyasi (26.08.2024-y., №11-05-4381/01) asosida:

- Ekspert kengashi (29.10.2024-y., №10)
- Rayosat qarori (31.10.2024-y., №363/5)

Psixologiya fanlari bo‘yicha: Toshkent davlat pedagogika universiteti murojaatiga asosan OAK tavsiyasi (24.04.2025-y., №11-05-2566/01):

- Ekspert kengashi (25.05.2025-y., №10)
- Rayosat qarori (08.05.2025-y., №370/5)

“Maktabgacha va maktab ta’limi”
jurnali

26.09.2023-yildan

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti
Administratsiyasi huzuridagi Axborot
va ommaviy kommunikatsiyalar
agentligi tomonidan **№C-5669363**
reyestr raqami tartibi bo‘yicha
ro‘yxatdan o‘tkazilgan.

Litsenziya raqami: **№136361**

MUNDARIJA

Oilaning maktabgacha yoshdagi bolalar estetik tarbiyasidagi o'rni	24
<i>Abdullayeva Ma'sudaxon Abdubannayevna</i>	
Bo'lajak informatika o'qituvchilarini pedagogik faoliyatga metodik tayyorlash texnologiyalari	27
<i>Abdubannoyeva Muxlisaxon Iqboljon qizi, Abdullayev Alibek Qodiraliyevich</i>	
Oliy ta'lim muassasalarida bulutli xizmatlardan foydalanish zaruriyati	30
<i>Abdullayev Alibek Qodiraliyevich, Turdaliyeva Muslimaxon Jahongir qizi</i>	
Raqamli texnologiyalar yordamida fortepiano chalishni o'rgatish metodikasi	34
<i>Abduvaxobova Nilufar Abdumannon qizi</i>	
Maktabda fizika fanini o'qitishda innovatsion yondashuv	38
<i>Alinazarova Mahfuza</i>	
Tasavvufdagi "komil inson" konsepsiyasining hozirgi ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan yondashuv sifatida talqini	43
<i>Aqilxonov Saidolimxon Abdurashid o'g'li</i>	
Tabiiy-ilmiy savodxonlikni shakllantirish omillari va pedagogik shart-sharoitlar	48
<i>Choriyeva Gulbaxor Shotemirovna</i>	
Robototexnika fanini o'qitishda axborot texnologiyalaridan foydalanib mustaqil ta'limni tashkil etish	53
<i>Elmonov Sirojiddin Mamadiyarovich</i>	
Xalqaro baholash dasturlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qish savodxonligini baholash bo'yicha jahon tajribasi	58
<i>Ergasheva S. T.</i>	
Boshlang'ich ta'limda tabiiy fanlar orqali o'quvchilarning kognitiv salohiyatini rivojlantirish	61
<i>Eshmamatova Dilnoza Jovli qizi</i>	
Maktabgacha yoshdagi bolalarning aqliy salohiyatini oshirishda tarbiyachi mahorati	64
<i>Karimova Gulzodaxon Marufjon qizi</i>	
Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirishni takomillashtirish	68
<i>Hojikarimova Gulasal Tadjaliyevna</i>	
Xorijiy talabalarga o'zbek tilini o'rgatishda elektron platformalar yaratish	71
<i>Jo'rayeva Matluba</i>	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun raqamli ta'lim muhitini modellashtirish va uning samaradorlik omillari	74
<i>Komilova Z. X.</i>	
O'qituvchi kasbiy faoliyatida muloqot madaniyati	80
<i>M. Yu. Mahkamova</i>	
Psixologiya fanini o'qitishda zamonaviy pedagogik texnologiyalar va talabalarda tahliliy fikrlashni shakllantirish masalalari	86
<i>Madazizova Difuza Raxmatullayevna</i>	
Integrating Listening and Speaking Skills in ESP (English for Specific Purposes) Classes	90
<i>Madina Tilavova</i>	
Bolalarni maktabga tayyorlash jarayonida neyropedagogik yondashuvlar	94
<i>N. O. Saidova</i>	
Tibbiyot oliy ta'lim muassasalarida radiologiya fanini o'qitishda raqamli texnologiyalarning metodologik roli	99
<i>Nazarova Gulchexra Shuxratdjonovna</i>	
Ijodkorlik tushunchasining mohiyati va uning ta'limdagi roli	103
<i>Ochilova Dilbar Isroilovna</i>	
Alaliyani boshqa nutqiy nuqsonlar bilan farqli xarakteristikasi	108
<i>Oripova Zilola</i>	
Ingliz tilini o'qitishda suggestopediya metodini joriy etishning samaradorligi	113
<i>Pulatova Sitora Abdurazzoq qizi</i>	
Oliy ta'lim muassasalari menejerlarining kasbiy-boshqaruv kompetentligi tushunchasi va uning tarkibiy qismlari	118
<i>Qarshiboyev Sharof Egamnazarovich</i>	
Koordinatsion qobiliyatlarni rivojlantirishning yosh badmintonchilar texnik-taktik tayyorgarligiga ta'siri	122
<i>Qurbanova Ilmira Alisher qizi</i>	



Blended Learning	125
Quvandikova Xadicha	
Fizika darslarida zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanish	129
Raxmanov Valijon Turdaliyevich, O'razaliyev Alijon Xasan o'g'li	
"Qurilish jarayonlari texnologiyasi" fanida loyihalash kompetentligining tarkibiy tuzilmasi va uni raqamli ta'limga moslashtirish	135
Raxmonova Nazokat Umaraliyevna	
Vitagen texnologiyalar asosida talabalar mediamentalitetini rivojlantirishda sun'iy intellekt (AI) dasturlaridan foydalanishning tahliliy modeli	140
Rustamova Nodira Rustamovna	
Talabalarda kooperativ ta'lim asosida motivatsiyani rivojlantirish usullari	145
Sitora Toshmatova	
STEAM yondashuvi asosida boshlang'ich sinf o'quvchilarida kreativ kompetensiyani shakllantirishning zaruriyati	149
Tashibekova Munajat Xoshimovna	
Musiqqa ta'limining pedagogik asoslari va metodik tizimi	153
Toshpulatova Said Kuzibaevna	
Texnologiya fanini o'qitishda eng samarali metodlardan foydalanish	158
Turdiyeva Shahzoda Eshdavlat qizi	
Enhancing University Students' Self-Directed Learning Through Edtech Tools	161
Ulasheva Lobar	
Fanlararo loyiha ishlarini tashkil etish orqali o'quvchilarning dizayn fikrlash salohiyatini oshirish	164
Valiyeva Nargiza Athamboyevna	
Alohida ta'lim ehtiyojiga ega o'quvchilarning kasbiy faoliyatga tayyorlashning pedagogik-psixologik asoslari	169
Xakimova Sarvinov Sharifjon qizi	
Sun'iy intellekt asosida yaratilgan ta'lim platformalari: samaradorlik tahlili va pedagogik yondashuvlar	173
Xanbabayev Xakimjon Ikramovich, Erkinov Jasurbek Hasanjon o'g'li	
Tasavvufdagi "muhosaba" va "tafakkur" amallarining o'z-o'zini refleksiya metodlari sifatida qo'llanilishi	176
Xoshimov Nuriddin Mamadaliyevich	
Milliy sport va ommaviy o'yinlarning badiiy-estetik ahamiyati	182
Yaxyayeva Sojida Abdurahimovna	
Ota-ona mehrining bola psixologiyasiga ta'siri	185
Yulchiyeva Shohsanam Dilshod qizi	
Nutq rivojlanishi orqada qolgan bolalarda qo'llaniladigan innovatsion usullari samaradorligi	189
Ahmedova Nargiza Muzaffarovna	
Факторы, сдерживающие развитие науки в контексте требований к диссертационным работам	193
Зайналов Жахонгир Расулович, Нурмухамедов Аббос Мамадалиевич, Шадманов Камолиддин Кажакджанович, Самигова Нодира Хамидуллаевна	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	197
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	
Психологическая консультация: современная практика, задачи и перспективы развития	203
Раупова Шохида Ахроровна	
Подготовка будущих педагогов к инклюзивному обучению детей с ограниченными возможностями здоровья: задачи и перспективы	207
Сайфутдинова Насиба Нурматовна	
Формирование иноязычной грамотности у курсантов военных вузов: социально-психологические факторы	211
Сулейманова Нилуфар Камиловна	
O'qituvchi shaxsiy kompetensiyasining mohiyati va pedagogik faoliyatdagi o'rni	214
Abdiraxmonova Guliston Muzaffar qizi	
Bolalarda axloqiy qadriyatlarni shakllantirish jarayonining milliy va umuminsoniy tamoyillari	218
Abdumutalipova Gulshodaxon Nurbek qizi	
Fuqarolik jamiyatida huquqiy madaniyat va uni rivojlantirish jarayonlari	221
Abdusalimova Shaxnoza Quduratullayevna	
Ta'lim menejmenti tizimida o'qituvchining nutq madaniyatini rivojlantirish strategiyalari	224
Abduxalilova Iroda Nozimxonovna	



O'zbekistonda yoshlarni ijtimoiy-pedagogik hamkorlikda tarbiyalashda "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasi"ning ustuvor vazifalari	229
Abirova Umida Nazarovna	
Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini inklyuziv ta'lim sharoitida differensiyalashtirilgan dars mashg'ulotlarini tashkil etishga o'rgatish (kompetentligini shakllantirish/rivojlantirish) usullari.....	232
Adhamova Diyora Sanjar qizi	
Musobaqa faoliyati samaradorligini oshirishda sambochilarning energiya sarfi va tiklanish mexanizmlari tahliliy	239
Tangriyev Abdukarim Tovashevich	
Aksiologik yondashuv asosida bo'lajak jismoniy tarbiya o'qituvchilarining harakat faolligini takomillashtirishning ijtimoiy-pedagogik zaruriyati.....	244
Hafizov Shahriyor Shavkatovich	
Bo'lajak tarbiyachilarning transversal: tanqidiy va innovatsion fikrlash kompetensiyalari	248
Jaloliddinova Maftunaxon Mahmudjon qizi	
Axborotning gnoseologik mohiyati.....	256
Kamolova Munajatxon Jaloldinovna	
Maktabgacha yoshdagi bolalar nutqini rivojlantirish yo'llari	259
Mamatova Aziza Bo'riboyevna	
Akademik litseylarda kimyo fanini o'qitishda raqamli ta'lim texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlari.....	262
Maxamadiyev Sharofiddin Jumaboyevich	
Pedagogik oliy ta'limda talabalarning kasbiy ijtimoiylashuvini korporativ madaniyat asosida rivojlantirish metodikasi.....	267
Maxkamova Dilafruz Aliyevna	
Bo'lajak o'qituvchilar uchun xorijiy tillarni o'qitishda lingvomadaniy yondashuv	271
Normamatova Kamola Gulmamat qizi	
O'zbek tili izohli lug'atida iboralarning grammatik tavsifi (bosh komponentli iboralar misolida).....	274
S. Sh. Azamatova	
Oila instituti va gender tenglikni ta'minlashning ijtimoiy-huquqiy muammolari	277
Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi	
Gender yondashuv asosida talaba-qizlarda tanqidiy fikrlashni rivojlantirishning namunaviy mezonlari.....	282
Xolova Mohigul Shavkatovna	
Pedagogika yo'nalishi talabalari huquqiy savodxonligini rivojlantirish metodlarini takomillashtirish.....	287
Xudoyberganov Atham	
Boshlang'ich sinf o'quvchilarida leksik komponentlikni TRIZ texnologiyasi yordamida rivojlantirish	291
Zokirova Sohiba Muxtoraliyevna, Fayzullayeva Nazokat Uchqun qizi	
Цифровизация и трансформация образования как социально-педагогическое явление	295
Кадирова Наргиза Азаматовна	
Методика формирования креативного мышления у студентов-филологов на основе проблемно-ориентированных заданий (на материале английского языка)	298
Мамырбаева Дина	
Структура и стратегии развития предметных компетенций	304
Наимова Мафтунабону Файзулложоновна	



OILA INSTITUTI VA GENDER TENGLIKNI TA'MINLASHNING IJTIMOIY-HUQUQIY MUAMMOLARI

Salayeva Aziza Muhammadmurot qizi

Termiz davlat pedagogika instituti,
Milliy g'oya, ma'naviyat asoslari va huquq ta'limi yo'nalishi,
4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Hakimova Muyassar

Annotatsiya: Ushbu maqolada jamiyat tayanchi bo'lgan oila institutining o'rni, yurtimizda oilalarga bo'lgan e'tibor, oilaviy munosabatlarning o'ziga xos jihatlari hamda ularning huquqiy kafolatlari tahlil qilinadi. Shuningdek, erkak va ayollar o'rtasida teng huquq va imkoniyatlarni ta'minlashga qaratilgan gender tenglik siyosati, mazkur yo'nalishdagi ijtimoiy-huquqiy muammolar va ularni bartaraf etish mexanizmlari yoritilgan. Tadqiqotda O'zbekiston Respublikasining qonunlari, davlat strategiyalari hamda xalqaro me'yoriy hujjatlar tahlil asosida ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: oila, jamiyat, qonun, gender tenglik, huquq, davlat, siyosat, erkinlik, xotin-qizlar, demokratiya, oilaviy qadriyatlar, rivojlanish, ijtimoiy hayot, strategiya, tarbiya, daxldorlik.

Abstract: This article examines the role of the family institution as the foundation of society, the state's attention to families in Uzbekistan, and the legal guarantees of family relations. It also analyzes the policy of ensuring gender equality aimed at achieving equal rights and opportunities for men and women, as well as existing socio-legal challenges and possible solutions. The study is based on the analysis of the laws of the Republic of Uzbekistan, national development strategies, and relevant international legal frameworks.

Key words: family, society, law, gender equality, rights, state, policy, freedom, women, democracy, family values, development, social life, strategy, upbringing, inclusion.

Аннотация: В данной статье рассматривается роль института семьи как основы общества, внимание, уделяемое семьям в нашей стране, особенности и правовые гарантии семейных отношений. Также анализируются политика обеспечения гендерного равенства, направленная на достижение равноправия мужчин и женщин, существующие социально-правовые проблемы и пути их решения. В исследовании изучены законодательные акты Республики Узбекистан, государственные стратегии и международные нормативные документы.

Ключевые слова: семья, общество, закон, гендерное равенство, право, государство, политика, свобода, женщины, демократия, семейные ценности, развитие, социальная жизнь, стратегия, воспитание, принадлежность.

KIRISH

Oila – jamiyat negizi, har bir insonda ilk yoshidan boshlab ongida shakllanadigan barcha insoniy fazilatlar, qadriyatlar kamol topadigan, huquqiy va ma'naviy tarbiya amalga oshiriladigan muhitdir. O'zbek oilasi o'zida ko'p asrlik mustahkam ma'naviy qadriyatlarimiz ravnaq topgan shunday maskanki, uning barqarorligi va mustahkamligi jamiyatimiz rivojining mustahkam omillaridandir. Agar oiladagi muhit sog'lom bo'lsa, unda kamol topayotgan yosh avlod qalbi va ruhiga milliy istiqloq g'oyalarini, qonun ustuvorligini singdirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratilgan bo'ladi. Bu, o'z navbatida, yurtimizda ayollar masalasi, huquqi, manfaatlari kafolatlanganligi, ularning mehnat qilishi, oila va jamiyatda o'z o'rnini topishi uchun barcha imkoniyatlar yaratilganligini yanada tasdiqlaydi. Insonning hayotga bo'lgan barcha qarashlari oila bag'ridan o'sib chiqadi. Oila – muhabbat, hurmat, birdamlik va mehribonlik manbai hisoblanadi. Qaysi oilada ayol – ona ma'naviyati yuksak bo'lsa, shu oilada ahillik, samimiylik muhiti hukm suradi, farzandlar esa ma'naviy jihatdan yetuk insonlar sifatida voyaga yetadilar. Ma'naviyatli ona o'z farzandida odob, insoniylik, mehribonlik, hamjihatlik, do'stlik kabi ma'naviy-axloqiy fazilatlarini tarbiyalay oladi. Oilada ma'naviy ozuqani yetarli darajada olgan inson kelajakda o'zining baxti va kamoloti yo'lida adashmaydi, yot g'oyalarga ergashmaydi, o'z oilasi va Vatanining sha'nini himoya qiladi. Zero, oilalar qanchalik mustahkam bo'lsa, jamiyat ham shunchalik barqaror bo'ladi va tobora taraqqiy etib boraveradi.



Agar jamiyat ijtimoiy munosabatlar yig'indisi bo'lsa, undagi har bir oila tabiiy, iqtisodiy, huquqiy, ma'naviy munosabatlarga asoslangan ijtimoiy birlik natijasida vujudga keladi. Oilaviy munosabatlar esa jamiyatdagi mavjud ijtimoiy, iqtisodiy, mafkuraviy, ma'naviy munosabatlar bilan belgilanadi. Jamiyatdagi ijtimoiy va iqtisodiy munosabatlar oilaning mustahkamligi va barqaror rivojlanishida hal qiluvchi rol o'ynaydi. Xuddi shuningdek, jamiyatdagi tinchlik va xotirjamlik, undagi ma'naviy muhit barqarorligi ko'p jihatdan har bir oiladagi munosabatlarda o'zaro muhabbat va hurmat, hamjihatlikka bevosita bog'liqdir.

Jadidchilik harakatining ulug' namoyandasi Fitrat o'zining "Oila" asarida: *"Millat taqdiri mana shu mamlakat va millat vakillari yashagan oilaning holatiga bog'liqdir. Qayerda oila munosabati kuchli intizomga tayansa, mamlakat va millat ham shuncha kuchli va tartibli bo'ladi"*, – deb fikr bildiradi. Bu jarayonda davlat har bir oilaning ijtimoiy himoyalaniishi, moddiy jihatdan ta'minlanishi, tinch va farovon hayot kechirishi uchun yetarli sharoitlarga ega bo'lishidan manfaatdor bo'lib, ularning kafolatlanishiga ko'maklashayotgani muhim ahamiyat kasb etadi.

Oilaning bunyod bo'lishida har ikki jins vakilining teng hissasi mavjud. Shu o'rinda xitoy faylasufi Konfutsiyning "Oila – bu erkak va ayolning bir-birini to'ldiruvchi hayot maktabidir" degan fikrini eslash joiz deb o'ylaymiz.

Oilaviy munosabatlarda gender tengligi asosini oila tarbiyasida ham ko'rish mumkin. Oilada shakllangan farzandlik, aka-uka, opa-singillik mehrini boshqa biror ijtimoiy muassasa bajara olmaydi. Bu hissiyotlar o'z-o'zicha yuksak axloqiy boylik bo'lgani holda shaxsning sotsial aloqalarida, jamiyat axloqini o'zgartirishda mustahkam zamin bo'lib xizmat qiladi.

Demak, oila tarbiyasining risoladagidek bo'lishida erkak va ayol birdek mas'uliyatli. Oilaviy munosabatlarda gender tengligi mamlakatimiz qonunchiligida to'la-to'kis o'z ifodasini topgan. Jumladan, Asosiy qonunimizning alohida bir bobi – XIV bob oila, bolalar va yoshlar munosabatlariga bag'ishlangan bo'lib, uning 76-moddasida shunday ta'kidlanadi: *"Oila – jamiyatning asosiy bo'g'inidir hamda jamiyat va davlat muhofazasidadir. Nikoh O'zbekiston xalqining an'anaviy oilaviy qadriyatlariga, nikohlanuvchilarning ixtiyoriy roziligi va teng huquqligiga asoslanadi. Davlat oilaning to'laqonli rivojlanishi uchun ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va boshqa shart-sharoitlar yaratadi"*.² Ko'rinib turibdiki, mamlakatimizda gender tengligi ham nazariy, ham huquqiy, ham ma'naviy jihatdan mustahkamlangan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Oila va gender tenglik masalalari o'zbek ijtimoiy hayotida muhim o'rin tutadi. Abdurauf Fitrat o'zining "Oila" asarida oilaning jamiyatdagi ahamiyatini chuqur tahlil qilib, uni millat ma'naviyatining asosi sifatida ko'rsatgan. U oiladagi tarbiya, mehr-muhabbat, o'zaro hurmat kabi qadriyatlar jamiyat barqarorligining kafolati ekanini ta'kidlaydi. F. Qilichevning "Oila munosabatlari" asarida esa oilaning ijtimoiy-huquqiy asoslari, er-xotin o'rtasidagi mas'uliyat, farzand tarbiyasida ota-onaning teng huquqliligi masalalari yoritilgan. Shuningdek, Safarov va Mahmudovlar "Oila ma'naviyati" nomli ishida oilaning ma'naviy fazilatlarini, tarbiya va qadriyatlar uyg'unligi haqida fikr yuritganlar.

O'zbek falsafiy adabiyotlarida, xususan "Falsafa qomusiy lug'ati" hamda "Oila ensiklopediyasi"da oila jamiyatning kichik ijtimoiy guruhi sifatida talqin etiladi. Bu manbalarda oila – nikoh va qarindoshlik rishtalari bilan bog'langan, o'zaro hurmat va axloqiy mas'uliyatga asoslangan birlik sifatida izohlanadi. Oila muhitining sog'lom bo'lishi nafaqat shaxs kamolotiga, balki jamiyatning barqaror rivojlanishiga ham ta'sir etishi qayd etilgan.

So'nggi yillarda ilmiy tadqiqotlarda gender tenglik masalasi alohida e'tiborga olingan. Rashidovna H. M. o'z izlanishlarida ayollarning ijtimoiy hayotdagi faolligi va ularning jamiyatdagi teng imkoniyatlarini kuchaytirish muhimligini ko'rsatadi. Hakimova M. esa tarixiy tajribalar misolida ayollarning ta'lim va madaniyat sohasiga qo'shgan hissasini tahlil etgan. Bu tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, ayollarning ijtimoiy hayotdagi faol ishtiroki va gender tenglikni ta'minlash jamiyat taraqqiyotining ajralmas qismidir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot metodologiyasi mazkur ilmiy ishning maqsad va vazifalariga muvofiq ravishda sifat va miqdoriy tahlil usullariga asoslandi. Ma'lumotlar ilmiy manbalar, o'quv adabiyotlari, mavjud statistik ma'lumotlar hamda ilgari o'tkazilgan ilmiy tadqiqotlar tahlili orqali to'plandi. Olingan ma'lumotlar solishtirma, mantiqiy tahlil va tizimli yondashuv asosida qayta ishlanib, oila institutining ijtimoiy-huquqiy ahamiyati va gender tenglikni ta'minlashdagi omillar aniqlab berildi. Tahlil jarayonida umumlashtirish va xulosalash metodlaridan foydalanildi.

¹ Abdurauf Fitrat. Oila. - Toshkent. Ma'naviyat, 1998. B. 8

² O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. - T.; "O'zbekiston", 2023. 43-44-betlar



TAHLIL VA NATIJALAR

Jahondagi rivojlangan davlatlarning barchasi huquqiy demokratizm, adolat, tenglik, qonuniylik kabi tamoyillarni mamlakat rivojlanishining asosiy tarkibi sifatida qarashadi. Bizning mamlakatimizda ham bu tamoyillar qonunchiligimizning asosini tashkil etadi. Xususan, fuqarolarning qonun oldida tengligi, ularning huquq va erkinliklarining to'la ta'minlanganligi qonunchiligimizda mustahkamlangan. Jamiyat taraqqiyoti oilalarning tinch-osoyishtaligiga bog'liq ekan, oilada ham o'zaro munosabatlarda barcha oila a'zolari teng hisoblanadilar.

“Oila kodeksi”ning 2-moddasi *“Oilaviy munosabatlarda ayol va erkakning teng huquqliligi” deb nomlanib, unda jumladan, “Oilaviy munosabatlarni tartibga solish erkak va ayolning ixtiyoriy ravishda nikohlanib tuzgan ittifoqi, er va xotinning shaxsiy hamda mulkiy huquqlari tengligi, ichki oilaviy masalalarning o'zaro kelishuv yo'li bilan hal qilinishi, oilada bolalar tarbiyasi, ularning farovon hayot kechirishi va kamoloti haqida g'amxo'rlik qilish, voyaga yetmagan va mehnatga layoqatsiz oila a'zolarining huquq va manfaatlarini himoya qilish ustuvorligi tamoyillari asosida amalga oshiriladi”*³, – deb mustahkamlab qo'yilgan. O'ylaymizki, gender tengligi, xotin-qizlar huquq va erkinliklari kabi tushunchalar, xotin-qizlarga bo'lgan munosabatlarning boshlanishi bu – oila hisoblanadi. Shuning uchun ham gender tenglik masalalarini biz oiladan boshlashimiz kerak. Yosh avlod ko'z o'ngida xotin-qizlarga bo'lgan munosabatni biz oiladan shakllantirib borishimiz kerak. Chunki bola onasiga, opa-singlisiga oilada qay darajada munosabat bildirilgan bo'lsa, ertaga jamiyatda ham bu munosabatlarni shu xilda takrorlaydi. Shunday ekan, bu jarayonni oiladan shakllantirib borgan maqsadga muvofiq sanaladi.

Shu o'rinda “oila” tushunchasining etimologik ma'nosiga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq. Tadqiqotchi F. Qilichevning yozishicha, qadimda xalqimizda egarni ulovga mustahkamlovchi tasmani “ayil” deb atashgan va er-xotinlik munosabatlari paydo bo'la boshlagach, ularning jipsligini “ayla”, ya'ni “ayl”, “oila” tarzida ifodalab nomlaganlar⁴. Boshqa olimlar esa “oila” arabcha “ayolmand” ma'nolarini anglatuvchi “oila” so'zidan kelib chiqqanini qayd etadilar⁵. “Falsafa (qomusiy lug'ati)”da *“oila – er-xotinlik ittifoqiga, qarindoshlik aloqalariga, umumiy xo'jalik yuritadigan er va xotin, ota-ona va bolalar, aka-uka va opa-singillar hamda boshqa qarindoshlar o'rtasidagi munosabatlarga asoslanadigan kichik ijtimoiy guruh”*, – deb yoziladi⁶.

“Oila ensiklopediyasi”da esa *“oila – nikohga va yaqin qarindoshlikka asoslangan axloqiy mas'uliyat, o'zaro hurmat, tushunish va mehr-muhabbat umumiyliigi bilan bog'langan kichik ijtimoiy guruh”*, – deb ta'rif beriladi. Shu tariqa, oila nafaqat tarixiy-ijtimoiy, balki biologik-sistematik kategoriyani anglatuvchi ma'nolarni ham kasb etib borgan.

So'nggi yillarda mamlakatimizda xotin-qizlarning huquq va manfaatlarini, gender tenglikni ta'minlash, oila, onalik va bolalikni himoya qilish, ayollar o'rtasida tadbirkorlikni rivojlantirish, ular uchun yangi ish o'rinlarini yaratish, mehnat va turmush sharoitlarini yaxshilash davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'lib qolmoqda.

Xususan, O'zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida”gi O'RQ-562-sonli⁸ Qonuni xotin-qizlarning jamiyatdagi o'rniga huquqiy kafolat hisoblanadi. Qonunda gender tushunchasiga ham ta'rif berilgan. Gender tenglik – bu xotin-qizlar va erkaklar o'rtasidagi munosabatlarning jamiyat hayoti va faoliyatining barcha sohalarida, shu jumladan siyosat, iqtisodiyot, huquq, mafkura, madaniyat, ta'lim hamda ilm-fan sohalarida namoyon bo'ladigan ijtimoiy jihatidir. Gender tushunchasi faqat ayollar manfaatlarinigina ifodalamaydi, balki har ikki jins vakillarining o'z orzu va maqsadlari sari dadil odimlashi, ularga hayot sifatini oshirish uchun bir xil imkon berishni huquqiy kafolatlaydi.

Ochiq aytishimiz kerakki, bizning mentalitetimizda “ayol kishi oila bilan”, “ayol kishining o'rni oilada” kabi qarashlar ko'pchilik ongida o'rtnashib qolgan. Yoki oladigan bo'lsak, ayol kishi erkak kishidan pastroq turishi kerak degan fikrlar xalq orasida qulog'imizga chalinib turishi hech kimga sir emas. Shuning uchun ham jamiyatga qaraydigan bo'lsak, xotin-qizlarga ishonchning tushishi ularning ko'p hollarda faqat oila turmushi bilan shug'ullanib qolishiga sabab bo'lgan. Afsuski, ayollar va qizlarni shaxsiy va ijtimoiy qo'llab-quvvatlaydigan erkaklar kam. Ko'p hollarda guvohi bo'lamizki, oilalarda qiz farzandni o'qitishni istashmaydi, balki ularni tezroq turmushga berishga oshiqishadi. Vaholanki, jamiyat uchun bo'lajak yetuk kadrlarni onalar, xotin-qizlar tarbiyalaydi. Ammo o'zi yetarlicha ta'lim olmagan ayol farzandiga ham ta'lim-tarbiya berishda qiynaladi.

3 O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi\ O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5-6-songa ilova, 2003-yil, 1-son. 8-moddasi

4 Qilichev F.J. Oila munosabatlari. Hayot va qonun kutubxonasi. Toshkent, 1997.

5 Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. T.: Ma'naviyat, 1998. -11-b

6 <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/falsafa-qomusiy-lug-at>

7 Oila ensiklopediyasi. Toshkent. 2019. -111-bet

8 O'RQ-532-son. “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida” gi qonuni. <https://lex.uz/en/docs/-4494849?ONDATE=09.04.2025>

Mustaqillikka erishganimizga 34 yil bo'ldi. Bu davrda biz ko'p narsaga erishish bilan birga, eng qimmatli narsalarni yo'qotib qo'yish yoqasiga keldik:

1. Urush yillarida ayrim o'zbek oilalari o'z farzandlarining nasibasini yarim qilsa ham, evakuatsiya qilingan minglab yetim bolalarni o'z bag'riga olib ketgan. Bugun esa shu xalqning farzandlari o'z hamyurtlarini, o'z jigarlarini ochiqchasiga sotmoqda.
2. Mahalliy xalq oilasiga tarixan uchramagan hol – ayollar, shu jumladan yosh kelinlarning arzimagan pul uchun mardikor bozoriga chiqishi.
3. 1994-yilda qariyalar uyida 3,7 foiz o'zbeklar, 67,9 foiz rusiyabonlar, qolgan qismini esa boshqa millat vakillari tashkil qilgan. Bugungi kunga kelib, qariyalar uyida 50 foizdan ortig'ini o'zbeklar tashkil qilmoqda.
4. Oiladagi ajrimlar soni ortib bormoqda.
5. Ijtimoiy yetimlar – ota-onasi hayot, ammo qamalgan yoki ota-onalik huquqidan mahrum etilganlarning farzandlari soni o'sib bormoqda.

Yuqoridagilarning barchasi oila institutiga ta'sir qilmay qolmaydi. Oilaning moddiy ta'minlanganlik saviyasi shu oilada voyaga yetayotgan bolaning har tomonlama shakllanishiga sharoit yaratadi. Shu bilan birga, moddiy ta'minlanganlik hayotdagi asosiy maqsad emas, balki maqsadga yetishishdagi muhim omil vositasi ekanligini bolalarga yoshlikdan tushuntirishimiz lozim. Asrlar davomida sayqallanib kelayotgan milliy qadriyatlarni to'g'ri anglab yetmaslik, ijtimoiy, umuminsoniy qoidalarni erkaklar tomonidan shaxsiy tarzda buzib talqin qilinishi, tushunilishi gender tenglikning buzilishiga sabab bo'lmoqda.

Respublika hududlarida, ayniqsa qishloq joylarida sog'liqni saqlash xizmatlari sifatining pastligi, xususiyl tibbiy xizmatlarning rivojlanmaganligi, er va xotin o'rtasida oilani rejalashtirish bo'yicha tibbiy madaniyatning yetarli emasligi onalar va go'daklar o'limlarining saqlanib qolishiga sabab bo'lmoqda.

Tashqi va ichki migratsiyaning gender jihatlarini, uning xotin-qizlar hamda erkaklarga, ularning oilasi va farzandlariga ta'siri bo'yicha tadqiqotlar yetarlicha olib borilmayapti. Mazkur sohada aholi uchun yaratilgan imkoniyatlar, xotin-qizlarning huquqlari, mehnat migrantlarini himoya qilish mexanizmlari to'g'risida targ'ibot-tashviqot ishlari lozim darajada tashkil qilinmayapti.

Qolaversa, media mahsulotlarining gender ekspertizasi o'tkazilmayapti, ommaviy axborot vositalarida oila va jamiyatdagi xotin-qizlar hamda erkaklarning rolini aks ettirishda an'anaviy qarashlar mavjud. Bosma va elektron OAVda xotin-qizlarning jamiyat rivojiga qo'shayotgan hissassi yetarli darajada yoritilmayapti.

Yuqoridagi kabi muammo va kamchiliklarning saqlanib qolishi nafaqat inson huquq va erkinliklarini to'laqonli ta'minlash imkoniyatini cheklabgina qolmasdan, mamlakatning xalqaro maydondagi imidjiga, uning xalqaro reyting va indekslardagi o'rniga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Ma'lumki, 1948-yilda BMT tomonidan qabul qilingan Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasida ham ayollarning tengligi alohida e'tirof etilgan bo'lib, deklaratsiyaning 1-moddasida shunday deyiladi: "Hamma odamlar o'z qadr-qimmatini hamda huquqlarida erkin va teng bo'lib tug'iladilar. Ularga aql va vijdon ato qilingan, binobarin, bir-birlariga nisbatan birodarlik ruhida munosabatda bo'lishlari kerak".

Mamlakatimizni rivojlantirish maqsadida qabul qilingan ko'pgina dasturlarda adolatli ijtimoiy siyosat yuritish bo'yicha rejalar va vazifalar kiritilgan. Masalan, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli⁹ Farmonda belgilangan maqsadlar orasida ham "xotin-qizlarni qo'llab-quvvatlash, ularning jamiyat hayotidagi faol ishtirokini ta'minlash" alohida maqsad sifatida kiritilgan. Jumladan, bularga quyidagilarni kiritish mumkin:

- Jamiyatda xotin-qizlarga tazyiq va zo'ravonlikka nisbatan muhosasiz muhitni yaratish, xotin-qizlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ta'minlash;
- Gender tenglikni ta'minlash siyosatini davom ettirish, xotin-qizlarning ijtimoiy-siyosiy faolligini oshirish, ularni qo'llab-quvvatlashga doir islohotlarni amalga oshirish;
- Xotin-qizlarning ta'lim va kasbiy ko'nikmalar olishlari, munosib ish topishlariga har tomonlama ko'maklashish, tadbirkorligini qo'llab-quvvatlash, iqtidorli yosh xotin-qizlarni aniqlash va ularning qobiliyatlarini to'g'ri yo'naltirish;
- Og'ir ijtimoiy ahvolga tushib qolgan xotin-qizlarga ijtimoiy-huquqiy, psixologik yordam ko'rsatish, ularni manzilli qo'llab-quvvatlash kabilar belgilab qo'yilgan.

Gender tenglikning jamiyatimizda to'la ta'minlanishi orqali xotin-qizlarning jamiyatda o'rni va roli yanada mustahkamlanadi.

9 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi "2022 – 2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF-60-sonli Farmonda: <https://lex.uz/docs/-5841063>



XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, yurtimizning farovonligi, huquqiy-demokratik davlat qurilishidagi eng muhim mezon sifatida oila institutini takomillashtirish hamda gender tenglikka erishish yo'lidagi siyosati tizimli amalga oshirib borilmoqda. Yurtimizda har bir sohani yangicha tarzda isloh etish uchun yildan-yilga qonunlar, qarorlar, farmon va farmoyishlar qabul qilinib, ularning salmog'i qonunchilik tizimining yangilanishi hamda takomillashib borishida tobora ortib bormoqda. Bundan ko'zlangan maqsad esa – yurtimiz osoyishtaligi, oilalarning osuda va farovon hayot kechirishi, har bir fuqaroning Vatan taqdiriga befarq bo'lmagan, faxr, iftixor hamda daxldorlik tuyg'usi bilan hayot kechirishi hisoblanadi.

Har birimiz, avvalo, oilamizning mustahkamligi, undagi mehr, oqibat, o'zaro izzat-hurmatga asoslangan munosabatlarga sobit qolsak, o'ylaymizki, jamiyatimiz yanada yuksaladi, mavjud muammolar o'z yechimini topadi. Davlatimizda amalga oshirilayotgan gender tenglikka oid siyosat esa har bir fuqaro uchun o'ta ahamiyatli bo'lib, tenglik, hamjihatlik, qolaversa, erkaklar va ayollarning tom ma'noda erkinligining kafolatidir, desak mubolag'a bo'lmaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Abdurauf Fitrat. Oila. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – B. 8.
2. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – Toshkent: "O'zbekiston", 2023. – 43–44-betlar.
3. O'zbekiston Respublikasi Oila kodeksi. // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 1998-yil, 5–6-son, ilova; 2003-yil, 1-son, 8-modda.
4. Qilichev F. J. Oila munosabatlari. // Hayot va qonun kutubxonasi. – Toshkent, 1997.
5. Safarov O., Mahmudov M. Oila ma'naviyati. – Toshkent: Ma'naviyat, 1998. – 11-b.
6. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/yangi-kitoblar/falsafa-qomusiy-lug-at>
7. Oila ensiklopediyasi. – Toshkent, 2019. – 111-bet.
8. O'RQ–532-son. "Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to'g'risida"gi qonun. <https://lex.uz/en/docs/-4494849?ONDATE=09.04.2025>
9. Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi. <https://constitution.uz/oz/pages/humanrights>
10. "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni. 2022-yil 28-yanvardagi PF–60-son. www.lex.uz
11. Rashidovna H. M. (2022). New Uzbekistan in the World's View: Achievements for Active Foreign Policy and Socio-economic Cooperation. International Journal on Integrated Education, 5(6), 423–427.
12. Hakimova M. (2025). Ikkinchi jahon urushi davrida Surxon vohasi ayollarining maorif va madaniyat sohasiga qo'shgan munosib hissalari. Maktabgacha va maktab ta'limi jurnali, 3(6).

- 
- 13.00.00 Pedagogika fanlari
 - 13.00.01 Pedagogika nazariyasi. Pedagogik ta'limotlar tarixi
 - 13.00.02 Ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi (sohalar bo'yicha)
 - 13.00.03 Maxsus pedagogika
 - 13.00.04 Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.05 Kasb-hunar ta'limi nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.06 Elektron ta'lim nazariyasi va metodikasi (ta'lim sohaları va bosqichlari bo'yicha)
 - 13.00.07 Ta'limda menejment
 - 13.00.08 Maktabgacha ta'lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi
 - 13.00.09 Ijtimoiy pedagogika
 - 07.00.00 Tarix fanlari
 - 19.00.00 Psixologiya fanlari
 - 01.00.00 Fizika-matematika fanlari
 - 02.00.00 Kimyo fanlari
 - 03.00.00 Biologiya fanlari
 - 09.00.00 Falsafa fanlari
 - 10.00.00 Filologiya fanlari
 - 11.00.00 Geografiya fanlari



AKTABGACHA VA AKTAB TA'LIMI

Mas'ul muharrir: Ramzidin Ashurov

Ingliz tili muharriri: Murod Xoliyorov

Musahhih: Alibek Zokirov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. №11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Maktabgacha va maktab ta'limi" jurnali 26.09.2023-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №C-5669363 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: № 136361.

Manzilimiz: Toshkent shahar, Yunusobod tumani
19-mavze, 17-uy.